ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№6(2)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 104 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari ........ 10
Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayyora

Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari ........ 14
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi

Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni ........ 18
Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdamov Shahriyor Botir o'g'li

O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari ........ 22
Abduraximov Ziyodullo Xojiakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li

Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi ........ 28
Allamova Shoxista Shavkat qizi

Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar) ........ 33
Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish ........ 37
Axmedova Muxabbat Axmedovna

Ko'p o'zgaruvchili funksiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremalar va ularning isbotlari ........ 42
Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi

Bo'lajak mutaxassislarning huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari ........ 46
D. M. Xolnazarova

Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida ........ 49
Ibragimova Aziza Toshniyazovna

Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli ........ 55
Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi

Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating ........ 58
Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna

Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo ........ 64
Kobilov Sobir Donakulovich

Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari ........ 69
Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li

3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari ........ 75
Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli ........ 80
Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi ........ 84
Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi

Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari ........ 88
Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi ........ 94
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari ........ 100
Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich

# OILA VA TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI XAVFSIZLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA UNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li
Nizomiy nomidag O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Amaliy psixologiya kafedrasi v.b dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi
Amaliy psixologiya kafedrasi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oila va ta'lim tizimida o'smir va yoshlarning raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirishdagi psixologik omillar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli muhitning xavf-xatarlariga qarshi ongli va mas'uliyatli xatti-harakatlarni shakllantirishda oila, pedagoglar va psixologlarning roli muhimligi yoritiladi. Shuningdek, o'smirlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanishi, shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, kiberhujumlardan saqlanish hamda texnologiyalardan foydalanganda emotsional barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi psixologik omillar batafsil tahlil qilinadi. Maqolada nazariy asoslar, zamonaviy tadqiqotlar natijalari va o'qituvchilar hamda ota-onalar uchun amaliy tavsiyalar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli xavfsizlik, oila, ta'lim tizimi, psixologik omillar, yoshlar, kiberxavfsizlik.

**Abstract:** This article scientifically analyzes the psychological factors involved in forming digital security culture among adolescents within family and educational systems. The study highlights the crucial role of parents, educators, and psychologists in fostering conscious and responsible behaviors against digital threats. It also examines how adolescents can safely use the internet and social networks, protect personal data, prevent cyberattacks, and develop emotional stability and social responsibility when interacting with technology. The article provides theoretical foundations, modern research findings, and practical recommendations for educators and parents.

**Key words:** digital security, family, educational system, psychological factors, youth, cybersecurity.

**Аннотация:** В данной статье научно анализируются психологические факторы формирования культуры цифровой безопасности среди подростков в рамках семьи и образовательной системы. Подчеркивается важная роль родителей, педагогов и психологов в формировании сознательного и ответственного поведения в условиях цифровых угроз. Рассматриваются аспекты безопасного использования интернета и социальных сетей, защита личных данных, предотвращение кибератак, а также развитие эмоциональной устойчивости и социальной ответственности при взаимодействии с технологиями. Статья содержит теоретические основы, результаты современных исследований и практические рекомендации для педагогов и родителей.

**Ключевые слова:** цифровая безопасность, семья, образовательная система, психологические факторы, молодежь, кибербезопасность.

## KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalariga jadal kirib bormoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va turli raqamli platformalarning keng tarqalishi yoshlarning axborot olish, muloqot qilish va ta'lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Shu bilan birga, raqamli muhitda kiberbulling, internet firibgarligi, shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi, zararli axborotlar ta'siri va turli kiberxavflar kabi muammolar ham ortib bormoqda. Bu esa yoshlarni raqamli muhitda xavfsiz faoliyat yuritishga tayyorlash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish masalasi psixologiya, pedagogika va axborot texnologiyalari sohasidagi muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati ularning psixologik rivojlanishi, oilaviy tarbiyasi hamda ta'lim muhitiga bevosita bog'liqdir.

Mahalliy psixolog olimlar V.M. Karimova, M.G. Davletshin va E.G'. G'oziyevlarning ilmiy ishlari yoshlarning ijtimoiylashuvi, mas'uliyat hissining shakllanishi hamda shaxs rivojlanishida oilaning muhim o'rni mavjudligini ko'rsatadi. Ularning tadqiqotlarida o'smirlarning xulq-atvori va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda oilaviy muhit asosiy omil sifatida e'tirof etilgan. Mazkur qarashlar raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli xavfsizlik madaniyatining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash maqsadida nazariy tahlil metodidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalari, maqolalari hamda kiberxavfsizlikka oid zamonaviy tadqiqotlar o'rganildi va qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, shaxs faoliyati konsepsiyasi va ijtimoiylashuv nazariyalari tashkil etdi. Oila va ta'lim tizimining yoshlar raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirishdagi o'rni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, internet va turli raqamli platformalardan foydalanish yoshlar orasida nafaqat bilim va muloqot imkoniyatlarini oshiradi, balki turli xavf-xatarlar, kiberhujumlar va shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi kabi salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqaradi. Shu sababli oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Raqamli xavfsizlik madaniyati – bu shaxsning internet va raqamli texnologiyalar muhitida o'zini himoya qilish, axborotni to'g'ri baholash, shaxsiy ma'lumotlarni asrash hamda virtual muhitdagi xavf-xatarlarni anglash va ularga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish tizimidir. Bugungi kunda raqamli muhit inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib borganligi sababli, ushbu madaniyatni shakllantirish nafaqat texnik, balki kuchli psixologik asosga ham ega bo'lishi zarur.

Oila va ta'lim tizimi bu jarayonda eng asosiy ijtimoiy institutlar sifatida namoyon bo'ladi. Chunki bola va o'smirning raqamli xulq-atvori avvalo oilaviy muhitda shakllanadi, keyinchalik esa ta'lim muassasalarida tizimlashtiriladi va nazorat qilinadi. Shu jihatdan raqamli xavfsizlik madaniyati ijtimoiylashuv jarayonining zamonaviy ko'rinishi sifatida baholanadi.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, raqamli xavfsizlik madaniyati – bu shaxsning internet va raqamli muhitda xavfsiz va mas'uliyatli xatti-harakatlarni ongli ravishda amalga oshirish qobiliyati, shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va kiberxavflardan saqlanishni o'z ichiga oladi. Ushbu madaniyat shakllanishida oila asosiy rol o'ynaydi. Ota-onalar o'z farzandlarining internet faoliyatini nazorat qilishi, xavfsiz internetdan foydalanish qoidalari bo'yicha tushuntirishlar berishi, shuningdek, farzandlar bilan ochiq muloqot o'rnatishi lozim. Oilaviy nazorat va tarbiyaviy muhit o'smirlarning mas'uliyat hissini rivojlantirishga yordam beradi, ularni raqamli xavfsizlikning zarurligiga ongli qiladi. Ta'lim tizimi ham raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maktab va boshqa ta'lim muassasalarida o'quvchilarga kiberxavfsizlik asoslari, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, onlayn etik qoidalar va mas'uliyatli internetdan foydalanish bo'yicha treninglar o'tkazilishi kerak. Pedagoglar o'smirlarni xavf-xatarlarni tanib olish, stressli vaziyatlarda to'g'ri xatti-harakat qilish va texnologiyalardan emotsional barqarorlik bilan foydalanishni o'rgatishi muhimdir.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli xavfsizlik madaniyatining shakllanishiga bir nechta omillar ta'sir qiladi: shaxsning mas'uliyat hissi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy ko'nikmalari, oilaviy tarbiya sifati, pedagogik yondashuv va tengdoshlarning ijtimoiy ta'siri. Shu bilan birga, o'smirlarning raqamli xavfsizlik bo'yicha bilim va ko'nikmalari ularning shaxsiy xulq-atvoriga, o'zini anglash darajasiga va kognitiv rivojlanishiga ham bog'liqdir.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda raqamli texnologiyalar o'sish va rivojlanish jarayonida yosh avlodning hayotida markaziy o'rin egallay boshladi. Internet, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar va turli onlayn platformalar nafaqat bilim olish, muloqot va ijodiy faoliyat imkoniyatlarini kengaytiradi, balki yangi xavf-xatarlar va kiberhujumlarni ham keltirib chiqaradi. Shu sababli o'smirlar va yoshlar orasida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish bugungi kunda nafaqat texnologik, balki psixologik, ijtimoiy va pedagogik muhim vazifa hisoblanadi.

Psixologlar ta'kidlashicha, raqamli xavfsizlik madaniyati shaxsning internet va raqamli muhitdagi xavf-xatarlardan himoyalanish, mas'uliyatli va ongli xatti-harakatlarni amalga oshirish, shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, virtual muhitda ijtimoiy va emotsional barqarorligini saqlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Eriksonning psixologik rivojlanish nazariyasiga ko'ra, o'smirlik davrida shaxsning o'zini anglash va ijtimoiy identifikatsiya jarayoni sezilarli darajada rivojlanadi, bu esa ularning onlayn faoliyatida mas'uliyat va xavfsizlikni to'g'ri tushunishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda oila va pedagoglarning roli asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Oila psixologiyasi bo'yicha tadqiqotlar ko'rsatadiki, ota-onalarning nazorati va tarbiyaviy yondashuvi o'smirlarning kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilish darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, ota-onalar farzandlari bilan internet xavfsizligi bo'yicha ochiq muloqot olib borishlari, xavfli vaziyatlarni tanib olish va ulardan saqlanish yo'llarini tushuntirishlari, raqamli texnologiyalarni me'yorida va ongli ishlatishni rag'batlantirishlari psixologik jihatdan yoshlarning mas'uliyat hissini oshiradi. Shu bilan birga, ota-onalarning texnologik savodxonligi ham o'smirlarning kiberxavfsizlik madaniyati shakllanishiga ta'sir qiluvchi muhim omildir.

Ta'lim tizimi ham raqamli xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishda muhim vazifaga ega. Pedagoglar o'quvchilarga onlayn etik qoidalar, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, xavfli vaziyatlarni aniqlash va kiberhujumlardan saqlanish bo'yicha bilim berishi kerak. Valkenburg va Peter tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarni virtual xavfsizlik bo'yicha o'qitish ularning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantiradi, stressli vaziyatlarda xavfsiz xatti-harakat qilish qobiliyatini oshiradi va diqqatni jamlash hamda kognitiv resurslarni samarali ishlatishga yordam beradi. Shuningdek, raqamli xavfsizlik madaniyati yoshlarning kognitiv va psixologik rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Ular xavf-xatarlarni baholash, muammoli vaziyatlarda mantiqiy va mas'uliyatli qaror qabul qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va emotsional barqarorlikni saqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu sababli, oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirishni strategik tarzda amalga oshirish, o'smirlarning sog'lom psixologik rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi.

O'rganilgan ilmiy manbalar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, raqamli xavfsizlik madaniyati nafaqat texnologik, balki psixologik va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan murakkab tizimdir. Ota-onalar va pedagoglar tomonidan muntazam qo'llab-quvvatlanadigan va treninglar orqali mustahkamlanadigan bu madaniyat yoshlarning onlayn faoliyatini xavfsiz va mas'uliyatli qiladi, shuningdek, ularni virtual xavf-xatarlar bilan samarali kurashishga tayyorlaydi. Shu bilan birga, yoshlar orasida kiberxavfsizlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshirish ularning umumiy psixologik salomatligi va ijtimoiy moslashuvini ham yaxshilaydi. Shunday qilib, oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning psixologik omillari yoshlarning shaxsiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga bevosita ta'sir qiluvchi muhim faktorlardir. Bu jarayon nafaqat kiberxavfsizlikni ta'minlash, balki yoshlarning psixologik barqarorligini mustahkamlash va mas'uliyatli internet foydalanuvchisi sifatida shakllanishini kafolatlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish yoshlarning psixologik salomatligi, ijtimoiy moslashuvi va mas'uliyatli internet foydalanuvchisi sifatida rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar yoshlar hayotida keng qo'llanilayotganligi sababli, ularning xavfsiz va ongli foydalanishini ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, kiberxavflardan saqlanish va virtual muhitda emotsional barqarorlikni rivojlantirish zarur. Ota-onalar va pedagoglarning faol ishtiroki, ochiq muloqot va muntazam treninglar yoshlarni xavfsiz onlayn faoliyatga tayyorlaydi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavflardan saqlanish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, raqamli xavfsizlik madaniyati shaxsning mas'uliyat hissi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, raqamli xavfsizlik madaniyati nafaqat texnologik bilimlarni, balki shaxsning mas'uliyat hissi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy ko'nikmalari va muloqot qobiliyatini ham rivojlantiradi. Oila va pedagoglarning faol ishtiroki, ochiq muloqot va muntazam treninglar yoshlarning kiberxavfsizlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi hamda ularni real va virtual muhitda ongli va mas'uliyatli qaror qabul qiluvchi shaxsga aylantiradi. Shunday qilib, oila va ta'lim tizimida tizimli va ongli yondashuv orqali raqamli xavfsizlik madaniyati yoshlarning xavfsiz, mas'uliyatli va ongli internet foydalanuvchisi bo'lib shakllanishini ta'minlaydi.

Shu sababli, oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini strategik va tizimli tarzda shakllantirish bugungi kunda nafaqat texnologik, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu jarayon yoshlarning raqamli muhitdagi xavfsizligi, psixologik barqarorligi va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi hamda ularni mas'uliyatli, ongli va xavfsiz internet foydalanuvchisi sifatida shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**
1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
2. Davletshin M.G. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
3. Baskerville, R., & Pries-Heje, J. (2019). Social and Psychological Aspects of Cybersecurity for Children and Adolescents.
4. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
5. Livingstone, S., & Haddon, L. (2009). Kids Online: Opportunities and Risks for Children.
6. Patchin, J.W., & Hinduja, S. (2018). Digital Citizenship and Cyber Safety Education in Schools.
7. Boyd D. It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens. – Yale University Press, 2014.
8. UNICEF Uzbekistan. Digital Literacy and Child Online Protection Report. – Tashkent, 2022.
9. Shneiderman B. Human-Centered Artificial Intelligence. – Oxford University Press, 2022.
10. Raqamli xavfsizlik bo'yicha metodik qo'llanmalar. – Toshkent, 2023.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

Maktabgacha va maktab ta'limi

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.